



Dildor ESHMURATOVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi, PhD

E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD Sh.Kayumova taqrizi asosida.

RELIGIONMIK BIRLIKLARNING LISONIY SINTAKTIK XUSUSIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola teolingvistikaning obyekti hisoblangan teonimlar hamda religionomik birliklarning o'r ganishga bag'ishlangan. Relegionimik birliklarning teonimlardan farqi va ushbu birliklarning funksionallik xususiyatlari tahliliga tortilgan. Maqolaning asosini relegionomik birliklarning sintaktik xususiyatlari aniqlash va stilistik tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Kalit so'zlar: diniy madaniyat, sintaktik belgi, metafora, metofarik religionomik birliklar.

LINGUISTIC SYNTACTIC CHARACTERISTICS OF RELIGIOUS UNITS

Annotation

This article deals with the theonyms and religious units, which are the object of theological linguistics. The differences between relegionemic units and theonyms and the functional characteristics of these units are discussed. The basis of the article is the identification of syntactic features and stylistic analysis of religious units.

Key words: religious culture, syntactic sign, metaphor, metaphoric units of religion.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СИНТАКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РЕЛИГИОЗНЫХ ЕДИНИЦ

Аннотация

В статье рассматриваются теонимы и религиозно-омические единицы, являющиеся объектом богословской лингвистики. Обсуждаются различия между религионемическими единицами и теонимами, а также функциональные характеристики этих единиц. В основу статьи положено выявление синтаксических особенностей и стилистический анализ религиозных единиц.

Ключевые слова: религиозная культура, синтаксический знак, метафора, метафорические единицы религии.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda olimlar dinning jamiyat hayotidagi rolini ko'rib chiqishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Chunki u insoniyat tarixining turli bosqichlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib bormoqda va rivojlanishning turli bosqichlarini boshidan o'tkazgan.

Mazkur to'plangan tarjiba va amaliytda tadbiq etilayotgan fikrlar til va din o'rtasidagi munosabat bo'lib, u o'z mantiqiga, o'ziga xos xususiyatga egadir. Din bu madaniyatning elementlaridan biri hisoblanib, mazkur element til va dinning ildizlari hisoblangan insoniyatning tafakkuri mas'uli ekanligi tushunishimiz kerak. Madaniyatining barcha tamoyillari dan va tilga asoslangan bo'lib, unda insonning o'rnı ahamiyatlidir. Chunki nutqda aks etgan religionomik birliklari til nuqtai nazardan turli diniy-falsafiy tushunchalar bilan chamvarchas bog'liq. Til va din chorrahasida vujudga kelgan va dinning tilda mustahkam singib ketgan ko'rinishlarini o'rganuvchi soha bu ilohiyotshunoslik va u til va dinning o'zaro ta'siri muommosini hal qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikning tilni diniy nuqtai nazardan o'rganuvchi bo'limi teolingvistika bo'lib, bu atama haqida turli ilmiy tushunchalar va fikrlar otgan asrimizning o'rtalarida mashhur olim A.K.Gadomskiy tomonidan berib o'tilgan. Dinning evolutsiysi teolingvistikaning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kuni bilan bog'liq. Teolingvistika tilshunoslikning bir tarmog'i sifatida A.K.Gadomskyning asarlariga ko'plab tilga olingan va yetarlicha ilmiy manbaalar bilan uning tilni diniy tomonmlarini o'rganishni maqsad qilganligini asoslangan.

A.K.Gadomskiy, E.Kucharskaya, Drays va boshqa olimlar diniy sohaning turli elementlarini o'rganishgan. Diniy birliklar va ularni tarkibidagi alohida leksemalar va butun lingvistik-mavzuviy guruhlarning semantikasi va faoliyatini tahlil qilishgan [1].

So'zlar, frazeologik birliklar, religionomik birliklarning o'rganilishida ushbu iboralarining sintaktik belgilarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Muayyan diniy tushunchalarning o'ziga xosligi, grammatik, leksik-semantik va sintaktik bergilarini S.Bulavin, M.L.Granovskaya, N.M.Shanskiy, R.I.Goryushina,

T.F.Sapronov, Y.T.Listrova-Pravda, A.L.Golovanevskiy kabi olimlar chuqur tahlilga tortgan. Tadqiqotchi M.U.O'rinnbekova o'zining ilmiy maqolasida frazeologik birliklarning sintaktik belgilariga quyidagicha ta'rif beradi. "Frazeolok birliklar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalar, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni frazeologik birliklarda so'z, so'z birikmalar va gapning struktur belgilarini neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi" [2].

Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib borayotgan engiz tilshunosligida turli tipdagi so'z yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi aloqalar o'rganilishi muhim. Bu esa engiz tilshunosligi oldida yangi maqsadlarni ochadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologik birliklar til egalari ongidagi, oraliq hodisalar sifatida tebranuvchi va noaniq xarakterga ega. L.V.Sherba xuddi ana shu tebranuvchi va noaniq hodisalar tilshunoslarni e'tiborini tortishi zarurligini ta'kidlab o'tgan edi. Bilamizki, so'z va so'z birikmalar va gap uzoq yillarda davomida tilshunoslikning asosiy birliklari sifatida qabul qilib kelindi. Bu esa birinchidan til birliklarning inearxik (pog'onali) munosabatini chuqur tahlil etmaslikka olib keldi, ikkinchidan esa boshqaga til birliklari, jumladan frazeologik birliklar semantikasi, funksional-uslubiy xususiyatlari tadqiqqiga soya tashlab turdi.

Tahlil va natijalar. Religionimlar tadqiqi bilan izlanish olib borar ekanmiz teolingvistikani teonimlar, teonimlarni esa relegionimik jihatlarini o'rganishni maqsad qildik. Semantik va funksionallik xususiyatiga ko'ra teonimlarni quyidagicha ajratish mumkin.

- semantik sohaning nomi (butun teonimmi ifodalagan so'zlar: God, goddess, Logos va boshqalar).

- eng yuqori darajadagi xudo nomlanishi (qadimgi yunonliklaerning fikricha; Lord, Creator, Zeus, Cupid, Venus, Melphome, Morpheus, Talia, Terpsichore, Fortuna, Aeolus, Prometheus va boshqalar).

- xudoga yaqin mavjudodlar sinflarining nomlanishlari (angels, bacchantes, the muses, nymphs, mermaids, oceanids, the nereids va boshqalar).

- inson kelib chiqishining yarim ilohiy belgilari (Adam, Eve, Mother of God, Solomon va boshqalar).
- shaytoniy belgilari yoki belgilari to'plami, yeri dunyosida cheksiz kuchga ega bo'lish, nomlar maxluqlar va quiyi darajadagi mavjudotlar sinflari, yovuz ruhlari (devil, demon, gin, legion, vampire) va boshqalar.
- ilohiylashtirilgan mayhum tushunchalar va antropomorfik bo'lmagan obyektlar (soul, sin, spirit, grace, bear, laurel, incense va boshqalar).
- atributlar va belgilarning nomlari, ular bilan bog'liq obyektlar ibodat va dafn marosimlarining xususiyatlari (crown of thorns, laurel, the cross, the temple, church, monastery, priest, archpriest, sexton va boshqalar).
- koinot va koinot elementlari nomlanishlari (water, earth, fire, air, heaven, ocean va boshqalar) [3].

Tahlillar jarayonida yuqoridagi iboralar ishtirokida ko'plab metaforalarga duch keldik. Masalan, monastr religionimi bilan g'arbda quyidagi metafora ma'lum va mashhur. Herman. K. Kappenbergni "najot porti" deb ta'riflagan, u yerda u "bu dunyoning kema halokatidan qo'chib, yalang'och holda dushman bilan kurashishga tayyor edi". Najot porti degan mataforaning ishlatalishiga sabab monastrlar eski davrlarda dushman xujumidan saqlanadigan eng ma'qul joylar hisoblangan. Balkim shu juhatdan ham "port of salvation" iborasi monastrga tenglashtirilgan deyish mumkin.

Bundan tashqari, Kenterberilik Anselm, Kruteuslik Bruno va boshqa yozuvchilar monastrni bu hayotdagi dengizlarining xavf-xatarlaridan holi porti sifatida tasvirlashgan. "Burchard of Worm" kitobining muallifi monastrni har bir a'zoning turli vazifalari bo'lgan kema deb atagan. Rieauluks a'zosi esa "kemani tashlab ketsa, dengizga cho'kib ketadi" degan edi. Boshqa yozuvchilar monastrlarni Nuh alayhissalomning kemasiga qiyoslaganlar, uning nomi orom ma'nosini ham bildirishini ta'kidlagan. Va uning o'zi monastr hayotini hikoya qilgan [4].

Ko'rib turganingizdek har bir religionomik so'zning o'z mohiyatidan kelib chiqib, metaforik ma'no xususiyatlari mavjud.

Gonoriusning diniy hayot haqidagi metaforalaridan biri bu monastrning "qamoqxona"ga o'xshatilishi bo'lib, qamoqxona keng yo'lagidan kelgan aybdorlar jannatning keng zaliga kirishga loyiq bo'lishlari uchun qamoqqa olinadilar. Ya'ni monastrga yuborilganlar jannatga yuborilganlar deb tushunilgan. "Qamoqxona" atamasi bu yerda noaniq tushunchaga aylangan chunki monastrlar jazoni o'tash joyi emas balkim tovba tazarru qilinadigan joy, u yerga yuboriladigan insonlar ko'pincha o'z xohishiga ko'ra qaror qabul qiliishi. Ushbu ibora ma'naviy himoya muassasasi sifatida ishlataligan. Buning asosi uzoq tarixga

borib taqaladi. 1005 yilda vafot etgan Avliyo Reymat Rimlik abbat Arbobning estetik g'oyasi mavjud. Ushbu g'oyaga asosan inson o'limi to'g'ridan-to'g'ri nargi dunyoga tuyruk orqli o'tish deb tushuntiriladi.

O'tra asrlarda u dunyo ya'ni chin dunyonni ba'zan qamoqxonaga o'xshatishgan. Shu boisdan insonlar monastrdan chiqishlari chegaralanga ekan monastrni tom ma'noda, ham majoziy ma'noda qamoqxonadagi qamoqxona (jail in jail) deyish mumkin [4]. Qamoqxonadagi qamoqxona ya'ni jail in jail iborasi monastrga nisbatan javobgariksiz o'z aql idrokidan kelib chiqib, tavba qilishni anglatadi. Chunki monastrda qamoqxonadagidek qattiq tartibli ja'zo o'tash emas, balki tavba tazarru qilish tushunilgan. U yerdagi inson esa o'z ongiga qulqoq solgan hisoblanadi.

Teolingvistika diniy yoki konfessional terminlar, iboralar, so'z birikmalarini tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq qilishini hisobga olib, teolingvistika haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz to'g'ridir.

Teolingvistika belgiyalik lingvist J.P.Noppen tomonidan 1981 yilda qo'llanilgan va shu bois J.P.Noppeni tilshunoslik sohasida teolingvistikating otasi sifatida e'tirof etish mumkin. Keyinchalik 1995 yilga kelib, angliyalik lingvist Devid Kristal o'zi tuzgan ensiklopedik lug'atga teolingvistikani lingvistik termin sifatida kiritgan. Teolingvistika – bu inson so'zining qanday ekanligini tasvirlashga harakat qiladigan fan bo`lib, unda asosiy birlik o'laroq Xudoni anglatuvchi nutq birliklari ishlatalidi.

Diniy va qat'iylikka to'g'ri kelmaydigan vaziyatlarda funksiyalar to'g'ridan-to'g'ri bir tomonlama aloqa standartlari, ikkinchisi tomonloma uni metafora yoki nutq akti kabi mashhur shakllarda tasvirlash mantiqqa to'g'ri keladi. Darhaqiqat, bunday uslubiy bo'yoglar tilni boyitish bilan birga, undagi hilma xillikni ham ta'minlay oladi [5].

Yuqoridagi kabi religionimlarga ko'plab misollar bor. Shulardan eng mashhuri manaa from heaven iborasi bo'lib, u "kutilmaganda qabul qilingan juda foydalni narsa"ni ifodalaydi va ibora o'zgarmas tushuncha hisoblanadi. Ammo uning zamonaviy ma'nosi ham bo'lib, Egamiz osmondan isroilliklarga oziq-ovqat uchun yuboradiganmannani emas, balki har qandaymannani bildirishi aniqlangan (odamga tushgan orzu qilingan yoki yoqimli).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, religionomik birliliklarning o'rganilishi bugungi zamondan talablarining eng muhimlaridan biderid. Chunki religionomik birliklar badiiy matnning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ushbu birliliklarni semantik, leksik, sintaktik va stilistik tomonlari haligacha to'liq tadqiq etilmagan. Maqolada religionomik birliliklarning sematnik va sintaktik tahlili ko'rib chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Грановская Л.М. Из истории ораторского красноречия в России // Словарь. Грамматика. Текст: сб. ст. / Отв. ред. Ю.Н.Караулов, М.В.Ляпон. -М., 2016. С.78.
2. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. - Изд. 6-е. -М.: Либроком, 2012. - 272 с. - (Лингвистическое наследие XX века). - ISBN 978-5-397-02318-4.
3. O'rzbekova M.U. Ingliz tilida frazeologik birliliklarning oziga xos xususiyatlari. Journal of new century Innovations. Volume 15, ISSUE - 1, October 2022, B.74.
4. Constable G. Metaphors for religious life in the middle ages. London, P.236-235.
5. Eshmuratova D.U. O'zbek va ingliz tillarida teonim komponentli frazeologik birliliklarning lingvoqiyosiy tadqiqi. Temiz. 2023. B.20.
6. Корнеева А.П. Английские фразеологические единицы библейского происхождения в языке и речи. Автореферат канд. Москва – 2009.
7. Gadoeva M.I. (2021). Expression of the somatizms mouth, year, nose, tongue in the system of different languages // Novateur Publications Journal NX - A Multidisciplinary Reer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 ± 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. ± P.125-130. (JIF -7.223).
8. Gadoeva M.I. (2021). Lexico-semantic fields of "eye" in English and Uzbek languages//Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. https://saarj.com DOI NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India,- P.872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 - 7.492)
9. Gadoeva M.I. (2021). The expression of Somatisms in English and Uzbek proverbs // European conference on Natural Research. httr://rarers.onlinesonferenses. som/index.rhr/titfl/issue/view/Stockholm. –Sweden,– P. 36-41.